

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘U ASBOBLARINING KELIB CHIQISH TARIXI

Ataxanova Nozima

Andijon davlat pedagogika instituti
“Musiqqa ta’limi” yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya :Ushbu maqolada o‘zbek xalq cholg‘u asboblarning kelib chiqish tarixi va uning tuzilish shakllari haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar:ritm, nota, qo‘lyozma, ovoz, ansambl, orkestr, diapazon, tembr, ta’lim-tarbiya

Musiqqa san’at madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San’at bilan oshni bo‘lgan yoshlarning hayotiga munosabati, milliy ufodat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo‘ladi. San’atni, kuy qo‘shiqni sevadigan ijod ahlini munosib qadrlaydiga el yurtimiz borligidan fahrlanaman deb nutq so‘zlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mizziyoyev Miromonovich.¹

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bugun 19.03.2019 yilda yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakillantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ushbu gaplarni bayon etdi.

Musiqqa ko‘plab asrlar davomida insonga hamroh bo‘lib, uning mehnat faoliyatini, turmushini, his-tuyg‘usi hamda kechinmalarini, o‘y fikrlarini va orzu umidlarini aks ettirib kelgan. Har bir xalqning boy mazmuni, janr va badiiy obrazlar hilma xilligi, ohang xususiyatlarining o‘ziga hosligi, ritmikasi va melodiya ohang qurilishi, o‘ziga hos musiqqa cholg‘u asboblari yaratilishi bilan farqlanuvchi jozibador musiqqa asboblari behisob.

Musiqqa madaniyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Barchamizga ayonki, kuy-qo‘shiqqa, san’atga muhabbat, musiqqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakillanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.²

Musiqqa-bu “Musoi ijodi” degan yunoncha so‘zdan kelib chiqadigan san’atning bir shakli. O‘zbek xalqining cholg‘u asboblari bag‘oyat rang-barang: ular mavjud cholg‘u asboblarning deyarli barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Atrofimizdagi barcha tovush chiqaruvchi jismlar musiqqa asbobi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Musiqqa asboblarning tarixi insoniyat madaniyati shakillana boshlagan paytdan boshlanadi.

Musiqqa cholg‘u asboblari –musiqiy ton yoki o‘ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma’lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo‘ljallangan cholg‘u asboblardir.

Musiqqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir musiqqa cholg‘u asboblarning sadosi o‘ziga hos tembr, ma’lum diapazon tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqqa cholg‘u asboblari qadimdan qamish, bambuk, yog‘och, tosh, metal, teri, ipak, kokos yong‘och qovoq va boshqalardan tayyorlanadi.

Xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Dastlabki cholg‘ular eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq.³

Tarixan shunday bo‘lganki, an’anaviy o‘zbek musiqasida –vokal musiqada ham, cholg‘uda ham bir ovozli, ya’ni unison ijrochilik yaratildi. Ushbu an’ana hozirgacha saqlanib qolgan. Hozir O‘zbekistonda milliy cholg‘u asboblarning ikki turi mavjud. Bular:

1.Og‘zaki an’anada(eshitib) kuy ijro etiladigan cholg‘u asboblari.

¹ Sh.Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” 4-kitob Toshkent 2020 310-bet

² Tursunboy Hojiyevich Parpiyev “Cholg‘u ijrochiligi” Andijon-2023 4-bet

³ Abdullayeva. S Sovremenniy Azerbaytjanskiy muzikalniy instrumenti. Baku 1984 –yil 5-bet

2.Yozma an'anada (nota bo'yicha) kuy ijro etiladigan (takomillashtirilgan) cholg'u asboblari.

Qadimgi sharq madaniyati bag'rida, o'zbek xalq cholg'ulari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyotlar davomida o'ziga hos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga hos tuzilishi tufayli chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

XX asrga kelib xalq ijrochilik amaliyotida ommalashgan cholg'ularni o'rganib tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Buni jadidchilarimizdan biri Abdurauf Fitrat o'zining ijodida boshlab berib, qimmatli ma'lumotlarni namoyon etadi. Shundan so'ng musiqashunos olimlar cholg'ushunoslik ilmining rivojida samarali tadqiqotlar olib boradi. Ularning tadqiqotlarida an'anaviy cholg'ular musiqiy madaniyatning asoslaridan biri ekanligi va xalq madaniyatining go'zal an'alarini o'zida mujassam etib kelayotganligi bayon etilgan.

O'zbek xalq cholg'ularidan tuzilgan 5 ta guruhdan tashkil topgan

1. Puflama cholg'ular guruhi (nay, qo'shnay, surnay)
2. Torli urma cholg'ular (changlar)
3. Torli chertma mizrobli (afg'on, qashqar, prima ruboblar)
4. Urma zarbli (dutor, dutor prima, dutor bas, dutor kontrabas)
5. Torli kamonli (g'ijjak, g'ijjak alt, qobuz bas, qobuz kontrabas)

Dutor, rubob va g'ijjak singari cholg'u asboblari parklar, klublar, teatrlar va konsert zallarida emas, balki yopiq binolarda yahshi sado beradi. Ularni qayta yaratish zarur bo'lib, bu ustalarning ijodiy ishi bilan bog'liq. O'zbek xalq cholg'u asboblarining takomillashtirish to'g'risida ilk bor V.M Belyayevning "Uzbekskiy narodnie instrumenti" (O'zbek xalq cholg'ulari asboblari 1933-yil) kitobida eslatib o'tilgan. So'ng boshqa asarlarda ham bu masalada ham to'xtab o'tildi. Mualliflar ushbu cholg'u asboblarining sadosi sifatini yaxshilash, tovushini kuchaytirish, sozini tartibga solish ya'ni mavjud asboblarni negizida ularni birmuncha mukammal namunalarini yaratish, tarkibini kengaytirish zarurligi to'g'risidagi fikrlar bayon etildi.⁴

O'rta Osiyo xalqlarida bir qator tanbursimon, dutorsimon va qobiz, g'ijjak kabi cholg'ular yaratilib, amalyotda keng qo'llanila boshlangan. O'rta asrlarga kelib musiqiy cholg'ularning har biri shaklu shamoyiliga, ovoz tarannum nufuziga va xalq orasida katta e'tiboriga ega bo'lgan. Cholg'u sozlarining xalq orasidagi ommalashuvi o'z zamonasining faylasuflari, allomalari tadqiqotlarining manbaiga aylanishiga ham asos bo'lgan. Bu sohadagi tadqiqotlarining boshida IX asrda yashab ijod etgan qomusiy olim Abu Nasr al-Farobiy turadi. Milliy cholg'u sozlarimizning Saroy tantanalarida va xalq ommaviy sayillarida mahorat bilan ijro etilganligi to'g'risida ko'p manbalarida ma'lumotlar uchraydi. Cholg'u sozlarimiz tarixi qo'shiqchilik san'ati tarixi kabi qadimiydir. O'zbek milliy musiqa madaniyatimizning boy hazinasi va unda to'plangan musiqa me'rosimiz cholg'u sozlarimiz sabablidir. Bu cholg'ular ming yillar davomida xalqimizga ma'naviy ozuqa berib, ularni estetik didlarini shakllanishida muhim omil bo'lib keldi. Qadimda mashxur hofizlar, mohir sozandalar yetishib chiqqan. Milliy mumtoz qo'shiqchiligimizda durdona asarlar hisoblangan maqomlar va boshqa vazmin yo'lida kuylanuvchi asarlar ritm jihatida juda ham murakkab asarlar hisoblanadi. Bularning orasida Girya, chapandoz(chapandozi qalandar, chapandozi gulyor, chapandozi suvora) nasrullovi, mo'g'ilcha, talqincha va uforilar murakkab bo'lib, honanda o'z ovozigacha tanbur, dutor, ud, rubob va doira kabi cholg'ularni cholg'agan holda jo'r bo'lgan. Ular qaysi cholg'uni chalmasin doira sozini uning musiqiy usullarini o'zi ijro eta olmasa yoki his eta olmasa bunday murakkab musiqa asarlarini ijro eta olmaganlar. Quyida biz milliy cholg'u sozlarimizdan ba'zilariga qisqacha ta'rif beramiz;

Nay-turli xil damli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish usuliga ko'ra naysimonlar guruhiga kiradi, ya'ni nayda havoning damli harakati orqali yovush hosil bo'ladi. Nay bambuk tanasida yasaladigan cholg'u bo'lib, ichi g'ovak bo'ladi va puflab chalinadi.

Dutor-bu forscha so'zdan olingan bo'lib, "ikki tor" degan ma'noni bildiradi. Dutor yog'ochdan yasalgan bo'lib, kosa qismi yupqa payraxalarning yelimlab birlashtirilishi orqali yasaladi.

⁴ Anvar Liviyev "O'zbek milliy cholg'uchilik tarixi" 16 bet Toshkent 2005.

Tanbur- bu tan, dil, ya'ni dilni "qitiqlovchi" degan ma'noni bildiradi. Tanburning kosa qismi tut yog'ochi, dasta qismi va qoplamasi o'rik yoki boshqa qattiq yog'ochdan yasaladi.

Gijjak- bus soz asli "qobuz" so'zidan andaza olib yasalgan bo'lib, kelib chiqish tarixi Qo'qondir. Gijjak- yog'ochdan yasalgan bo'lib, kosa qismiga teri qoplama qoplanadi. Doskasi qisqa, parda o'rnatilmagan.

Chang- yog'ochdan yasalgan cholg'u bo'lib, kelib chiqishi qadimiydir. Chang urib chalinadigan torli cholg'u bo'lib, bambukdan yasalgan tayoqchalar uchiga rezina kiygizilgan holda chalinadi.

Doira – cholg'u sozlarining ichida eng qadimiysi urib chalinadi cholg'u hisoblanadi. U insoniyatning ibtidosiga, ya'ni inson olov kashf etgan davrga borib taqaladi.

Tanbur-torlarining soni uchtdan oltitagacha bo'lishi mumkun. Ammo hozirgi davrda ijrochilik amaliyotida ko'proq uch simli tanbur qo'llanishi odat tusiga kirdi. Tanburning torlari ko'rsatgich barmoqqa kiyiladigon nohun yoki tabiiy tirnoq vositasida tirnab cholinadi.⁵

Inson ovozi azaldan eng mukammal cholg'u hisoblanadi. Torli mizrobl yoki torli kamonli musiqa cholg'ulari ijrochilari hamisha o'zlari yaratgan kuylar ohangini inson ovoziga yaqinlashtirishga, bunda o'zgacha bir musiqiylikka erishishga, ohangni ta'sirliroq, samaraliroq, ravonroq chiqarishga intilishgan.

Cholg'uchining ijodiy faoliyatidagi eng ajoyib xususiyat shundaki, u hamisha o'zbek xalq cholg'ularida cholg'uchilik san'ati darajasini yuksaltirishga intiladi. O'zbek musiqa madaniyati tarixida nodir hodisa ro'y berdi. Cholg'ular tom ma'noda xalqchilik kasb etdi. Bugunga kelib takomillashtirilgan va rekonstruksiya qilingan o'zbek xalq cholg'ularidan hamma yerda-konsert estradasida, turli ko'rik-ko'nkurslarda, badiiy havaskorlik jamoalarida keng foydalanilmoqda. Og'zaki an'analarga asoslangan professional ijrochilar ham shu cholg'ulardan foydalanmoqda.⁶

Bizdan uzoqlashayotgan musiqa madaniyatini saqlab qolish katta ijtimoiy-siyosiy va ilmiy ahamiyatga molik ishdir. Bu yerda biz ildizlari uzoq o'tmishga taqaluvchi, qadimiy xalq musiqa an'analari qanday asrab-avaylab va diqqat bilan o'rganilayotganini hamda tadqiq etilayotganini, shu asosda zamonaviy cholg'ularni yaratilayotganini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati keying yillarda anchagina mukammalashdi. Biroq, erishilgan yutuqlar xalq cholg'ulari sohasidagi o'qituvchilar, ijrochi va tadqiqotchilar faoliyatida keskin burilishning debochasi holos. Hozirgi paytda mustaqil respublikalarning barcha musiqa oily o'quv yurtlari xalq cholg'u fakultetlariga ega bo'lib, unda u yoki bu respublikaning deyarli barcha cholg'ulari ijrochiligi mahoratini egallash mumkun. Ko'plab o'zbek xalq cholg'ulari nafaqat respublikamizda, balki undan tashqarida ham keng tarqalgan, chunonchi, nay, qo'shnay, sunray, chang, rubob, dutor, sado, ud, doira, nog'ora va boshqalar shular jumladan. Ularsiz hozirgi O'zbekistonning musiqiy hayotini ko'z oldimizga keltish mushkul. Xalq cholg'ulari fakultetini bitirgan mashhur sozanda-ijrochilar haqida ma'lumot;

Farhod Alimov(1930 yilda tug'ilgan). G'ijjakchi, bastakor, o'qituvchi. Toshkent Madaniyat intutining datsenti. Xalq cholg'ulari orkestriga yozilgan qator asarlar muallifi. " Shodiyora, tabriknoma, to'yona" o'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari uchun konsert kabi asarlar muallifi.

Omonjon Azizov (1950 yilda tug'ilgan). Naychi, o'qituvchi-metodist. Respublika konkursining sovrindori.

Anvar Odilov (1948-yilda tug'ilgan). Rubobchi-o'qituvchi. Toshkent shahrida 28- bolalar musiqa maktabining direktori.

Xulosa qilib aytish mumkunki, musiqa inson hayotida muhim ro'l o'ynaydi. Musiqaga oshno bo'lgan insondan hech yomonlik chiqmaydi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov aytkanidek "Tarixsiz kelajak yo'q". Kelajak avlodni tarbiyalashda musiqa katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa insonni yahshilikka chorlaydi, tarbiya va xulq atvorimiz, dunyoqarashimizni boyitadi. Hozirgi ayni vaqtda musiqaga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu boisdan musiqaga katta e'tibor qaratilgan. Insonlar tafakkuri va ongini shakillantirish maqsadida ko'plab cholg'u asboblari va qo'shiqchilik san'ati ommalashib bormoqda. Musiqa san'at maktablari, kollej va institut kabi bilim

⁵ Panjiev Qurboniyoz Berdievich " o'zbek xalq musiqa ijodi" Toshkent 2022 81-bet

⁶ A.Odilov "o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati" Toshkent 1995 50-bet

yurtlarda cholg'u asboblari yetishmovchiligi sababli, bolalar yaxshi bilim egallay olishmayabti. Agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Ohir oqibatda bunday odam musiqani his eta olmaydi. Kelajak avlodga bu cholg'ularni o'rgatishdan oldin uning tarixi, kelib chiqishini, bu cholg'uni kim yaratganligi, nima sababdan yaratilganligi to'g'risida tushuncha berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyevning "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" 4-kitob Toshkent 2020 310-bet
2. Tursunboy Hojiyevich Parpiyev "Cholg'u ijrochiligi" Andijon-2023 4-bet
3. Abdullayeva. S Sovremenniy Azerbaytjanskiy muzikalniy instrumenti. Baku 1984 –yil 5-bet.
4. Anvar.Liviye "O'zbek milliy cholg'uchilik tarixi" 16 bet Toshkent 2005
5. Panjiev Qurbonniyoz Berdievich " o'zbek xalq musiqa ijodi" Toshkent 2022 81-bet
6. A.Odilov "o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati" Toshkent 1995 50-bet
7. Abdumutal Qambarov, Sultonbek Mannopov, Mavluda Najmetdinova "O'zbek san'ati tarixi" farg'ona nashriyoti 2021 yil..
8. Djalilova, D. (2024). FORMATION OF HERMENEUTIC COMPETENCE OF FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS IN THE ANALYSIS OF MUSIC TEXTS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY (T. 4, Выпуск 1, сс. 34–37). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10548121>